

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Metafora va uning ematsional baholash funksiyasi Pride and asari  
Prejudice misolida**

***Panjiyeva Nasiba***

*Termiz davlat universiteti dotsenti.*

***Ibragimova Lobar Doniyorovna***

*Termez davlat universiteti  
magistratura lingvistika ingliz tili  
ta'lim yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya.** Biz ushbu maqolada Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice" (Andisha va g'urur) romanidagi syujetlardan foydalanib romandagi ijobiy qaxramonlar hayoti, ularning nikohga, oilaga bo'lgan munosabatlari hamda ushbu asardagi metaforlar o'rgandik. Roman bosh qaxramoni Elizabeth Bennetning nikoh masalasida o'z qarashlariga ega ekanligi va bu qarashlarga to'sqinlik qiluvchi har qanday qiyinchiliklarni qat'iyat bilan yengib o'tib baxtga erishgani muhokama qilingan hamda asardagi tasviriy ifodalar muhokama qilingan. Elizabethning boshqa qaxramonlar bilan bo'lgan munosabati tahlil qilingan Shunindek, maqolada XVIII asr xotin-qizlariga xos an'analar ko'rsatilgan va ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rghanildi.

**Kalit so'zlar:** realistik roman, dvoryan va pomeshchiklar, jamiyat, oilaviy munosabatlar, nikoh, tarbiya, qadimiy qadriyat, metafora.

Bu badiiy asar inson ruhiyati, o'ylari, tuyg'ulari va kechinmalari asosida bayon etilgan, go'zallik va haqiqat dunyosidagi hayotning ifodasidir. "Tarixdagi eng yaxshi 100 ta kitob" sirasiga kirgan Jeyn Ostin ijodining gultoji hisoblangan "Pride and Prejudice" (Andisha va g'urur) romani ana shunday go'zallik va haqiqat dunyosini tarannum etuvchi asarlardan biri hisoblanadi. 1813 - yilda nashr qilingan, adabiyot dunyosida katta shov-shuvga sabab bo'lgan mazkur asar, o'zining samimiyat, kulgu va satiraga boy tili bilan kitobxonlar qalbidan

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

allaqachon mustahkam o‘rin egallab olganligi, dunyo adabiyotshunoslari va tanqidchilari tomonidan bir necha bor tahlil etilganligi, tarjimonlar tomonidan esa hanuzgacha tarjima qilib kelinganligi bilan ahamiyatlidir. O‘sha paytdagi "Britanya tanqidchisi" jurnali ushbu asarning shu paytgacha o‘quvchilar hukmiga havola qilingan bu turdagи hamma romanlardan yuqori turishini ta’kidlagan edi. Asarning jo‘n va go‘zal tasviri har qanday o‘quvchini o‘ziga rom eta oladi.

"Pride and Prejudice" asaridagi metafora va uning emotsiyal baholash funksiyasi, asarning asosiy qahramonlarining o‘zlarining o‘ziga xos shaxsiyatları va o‘zlarini boshqalar bilan solishtirishiga asoslangan. Misol uchun, Elizabeth Bennet va Mr. Darcyning munosibatida, ularning o‘zaro o‘zlarini boshqalar bilan solishtirishlari orqali ularning o‘zlarining o‘ziga xos sifatlarini tushuntirish mumkin. Bu metafora, insonlarning o‘zlarini boshqalar bilan solishtirish va o‘zlarining emotsiyal baholashida o‘zgarishni ko‘rsatadi.

"Pride and Prejudice" asarida bir nechta metaforalar mavjud, ularning ayrimlari quyida ko‘rsatilgan:

1. O‘sha yigit Mixaylovo kunigacha ko‘chib kelmoqchi emish, kelasi haftaning *oxirlari* esa xizmatkorlaridan kimdir kelarkan.

2. Bu yoshda, odatda, ayollarda ular *bosh qotirishlari* mumkin bo‘lganchalik go‘zallik qolmasa kerak.

3. Mister Bennetning tabiatan *aqlining o‘tkirligi* va istehzoga moyillik, pismiqlik, va biroz shoshqaloqlik kabi xislatlari shunchaki aralashib ketganki, u bilan yashagan hotini ham moslasha olmagan.

Bu metaforalar asarning asosiy mavzularini va xarakterlarining o‘zgarishlarini ifodalaydi va o‘qituvchilar uchun tahlil va mantiqiy muhokama uchun qiziq mavzular bo‘ladi.

"Pride and Prejudice" asarida emotsiyal holatlar juda muhim bir rolni o‘ynaydi. Xarakterlar o‘rtasidagi mantiqiy va jismoniy ta’siratlar, ishonchli va ishonchsizlik, sevgi va yomonlik o‘rtasidagi muzokaralar, o‘zaro qarashlar va o‘zini tutishlari, o‘zaro munosabatlar va o‘zini hissiy kechinmalari kabi ko‘plab emotsiyal holatlar mavjud.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Elizabeth Bennet va Mr. Darcyning munosabatlari, ularning bir-biriga qarshi hissiyotlari va o‘zgarishlari asarning asosiy emotsiyal holatlaridan biridir. Elizabethning Mr. Darcyga qarshi dahshatli tasavvurlari, ularning o‘rtasidagi muzokalar va o‘zgarishlari, ularning o‘zaro hissiyotlari va sevgilari, o‘zaro ishonchszilik va so‘ngra tushunishlarining asarning asosiy bir qismi bo‘ladi.

Boshqa qahramonlar ham o‘z emotsiyal holatlari bilan ajralib turadi. Misol uchun, Jane Bennetning sevgisi va sabri, Lydia Bennetning yengilligi va iste’dodi, Mrs. Bennetning beqaror fikrlari va ruhiy kechinmalari kabi emotsiyal holatlar asardan ahamiyatli joy egallaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, roman keng qamrovlidir, iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy qadryatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Ushbu maqolada romandagi ijobiy qarashlar va ularga sodiqligi tufayli baxtga erishgan qaxramonlar hayoti muhokama qilingan. Roman bosh qahramoni Elizabethning nikoh masalasida o‘z qarashlariga ega ekanligi, bu yo‘lda qat’iyat bilan harakat qilishi, o‘z mezonlaridan qaytarishga uringan har qanday to‘sinqi yengib o‘tishi, barcha davralarda o‘zini erkin tutishi va xatolarini anglab ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarishi orqali baxtga erishganini ko‘rsatib o‘tilgan. Bir-birini tushunish, hurmat qilish, sevish nikohning muhim omili ekanligi va baxtiyor nikoh atrofdagilarga ijobiy ta’sir etishi, jamiyatda mehr-oqibat tuyg‘ularining yuksalishiga sabab bo‘lishi isbotlangan. Maqolada shuningdek turmushga chiqmagan qizlar va ayollarga xos jihatlar ko‘rsatilgan. Qolaversa, bu asardagi metafora va badiiy tasvir vositalari tahlil qilingan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Esten Mursal. Kesusateraan (Pengantar Teori dan Sejarah). Bangdung: Angkasa, 1978.
2. Gwinn R. P., Norton P. B. and Goetz P. W. The New Encyclopedia Britanica. - Chicago: Encyclopedia Britanica Inc., 1989.
3. Jane Austen. Pride and Prejudice. Novel. Published / Update on: June 24, 2020. - 479 p.
4. Koesnosoebroto S. The Anatomy of Prose Fiction. - Jakarta: Depertemen

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Pendikikan dan Kebudayaan, Direktorat Jendral Perguruan Tinggi, 1998.

5. Andisha va g'urur. Jeyn Ostin / Rus tilidan Muhabbat Ismoilova tarjimasi. - T.: Yangi asr avlodi, 2019. - 404 b.
6. Nusratullo Jumaxo'ja. Muallif va muhtarjim haqida so'z. - T.: Yangi asr avlodi, 2019. - 404 b.
7. <https://gradesaver.com/pride-and-prejudice-study-guide/>
8. [www.kh-davron.uz/ma'suma-axmedova-azizim-jeyn/](http://www.kh-davron.uz/ma'suma-axmedova-azizim-jeyn/)
9. [theguardian.com](http://theguardian.com)